O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAN, TA’LIM VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

HAMKORLAR

O‘ZBEKISTON MILLIY METROLOGIYA INSTITUTI DAVLAT MUASSASASI ANDIJON FILIALI
VA
OLMAOTA TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI QOZOQISTON RESPUBLIKASI

“ZAMONAVIY SANOAT ISHLAB CHIQARISH TARMOQLARI VA ILM-FAN TARAQQIYOTI GLOBALLASHUVIDA METROLOGIYANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”

mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

AXBOROT XATI

22-23 may, 2024 yil

ANDIJON

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 16-yanvardagi buyrug‘iga asosan (1-ilova) 2024-yil 22-23-may kunlari Andijon mashinasozlik institutida Butunjahon metrologiya kuniga bag‘ishlangan “Zamonaviy sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining globallashuvi va ilmiy taraqqiyot sharoitida metrologiyaning zamonaviy muammolari va ularni hal etish yo‘llari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tadi. 2024-yilgi Butunjahon metrologiya kunining shiori “Ertangi barqarorlik uchun bugun o‘lchaymiz”.

Anjumanda muhokama qilinadigan mavzular yo‘nalishlari:

1. **Metrologiyaning zamonaviy muammolari va zamonaviy sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining globallashuvi sharoitida ularni hal qilish yo'llari**
2. **Metrologiyaning zamonaviy muammolari va ilmiy taraqqiyotning globallashuvi sharoitida ularni hal qilish yo‘llari**
3. **Mashinasozlikda o'lchashlarni raqamlashtirish: amalga oshirishdagi muammolar**
4. **Tibbiy metrologiya va salomatlik uchun o‘lchashlar**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda qatnashishga xorijiy davlatlar va respublikamiz professor-o‘qituvchilari, mutaxassislari, ilmiy xodim va izlanuvchilari hamda OTMlar iqtidorli talabalari va magistrantlari taklif etiladi.

Dastur va materiallar to‘plami anjuman boshlangunga qadar chop etiladi. Anjuman materiallari to‘plamiga UDK, BBK, kutubxona indeksidagi kitob raqami beriladi. Anjumanda ishtirok etish uchun anjuman materiallari 2024 yilning 10 mayiga qadar qabul qilinadi.

Taqdim etiladigan anjuman materiallarini rasmiylashtirishga talablar:

Anjuman materiallari va talabnoma ikkita fayl qilinib, bitta xatda yuborilishi kerak. Fayl Word formatida yo‘nalish nomeri va muallifning familiyasi bilan nomlanishi lozim, masalan: «1-Sulaymanov Sh.doc».

Anjuman qatnashchisining talabnomasi (zayavka)ni taqdim etish majburiy hisoblanadi.

Anjuman materiallari +998979917040 raqamiga telegramm orqali (xorijlik qatnashchilar **tursunovbotirjon51@gmail.com** elektron pochta orqali) yuborilishi lozim.

Taqdim etilayotgan material Times New Roman tahririda 14-shriftda to`liq 3-5- bet bo‘lgan hajmda A4 formatdagi qog‘ozga rasmiylashtiriladi. Qog‘ozning hoshiyalaridagi o‘lchamlari: chapdan - 2,5 sm, o‘ngdan - 2,0 sm, yuqoridan - 2,5 sm va pastdan - 2 sm. Satr boshi uchun 1,0 sm qoldiriladi. Matn eni bo‘yicha tekislangan (по ширине) bo‘lishi kerak. Qatorlar orasida 1,5 interval.

Anjuman materiallari nomi markazga qoraytirilgan bosh harflar bilan yoziladi. Keyingi qator o‘tkazib yuboriladi. Keyingi satrdan muallifning FISh, ilmiy darajasi va unvoni yoziladi. Ularning tagiga qator qoldirmasdan kichik harflarda tashkilotning to‘liq nomi, shahri, davlati, elektron pochta va qo‘shimcha identifikatsion ma’lumotlar yoziladi. Keyingi qator o‘tkazib yuboriladi va navbatdagi qatordan maqolaning matni yoziladi.

Manbalarga havola (ссылка)lar asosiy matn ichida [1] ko‘rinishda bo‘lishi lozim (namunaga qarang).

Anjumanning ishchi tillari: o‘zbek, rus va ingliz.

Tashkiliy qo‘mita tomonidan materialni olgandan keyin uch kun ichida muallifning elektron pochtasiga tasdiqlovchi xat yuboriladi.

1. Anjumanning tashkiliy badali va materiallar to‘plamining nashr harajatlari bir maqola va bir tezis uchun 100 000 so‘m deb belgilangan (Magistrlar, talabalar hamda xorijiy ishtirokchilar tomonidan tayyorlangan maqolalar va tezislar uchun badal undirilmaydi).
2. Bitta ishtirokchi ko‘pi bilan 2 ta anjuman materiallarini taqdim etishi mumkin.

N A M U N A

ANJUMAN MATERIALI NOMI

Muallifning familiya, ismi, sharifi, ilmiy darajasi va unvoni
Tashkilot nomi, shahar, davlat
e-mail/ORCID

Asosiy matn [1].

……
……
……
……
……
……

Adabiyotlar

1. Muallif. Manba nomi. Nashr qilingan joyi, nashr qilingan yili, bet
2. ……
3. …….

Anjuman qatnashchisining talabnomasi (заявка)ning na'munasi:

1. Familiya, ism, sharifi _____
2. Ilmiy darajasi va unvoni _____
3. Ish joyi, lavozimi _____
4. Anjuman yo‘nalishi raqami _____
5. Anjuman materiali nomi _____
6. Telefon _____
7. E-mail_____

DIQQAT!

Xalqaro anjumanda ishtirok etish uchun anjuman materiallari va talabnomalar (заявка) 2024 yilning 10 may kuniga qadar qabul qilinadi.

Tashkiliy badal va nashr xarajatlari uchun to‘lov maqola bilan bir vaqtda topshiriladi.

Faqat redkollegiya tomonidan nashrga tavsiya etilgan va nashr harajatlari uchun to`lovni amalga oshirgan mualliflarning tezislari chop etiladi.

Anjuman materiallari mazmuniga, ma’lumotlar muallif(lar)ga tegishli ekaniga va keltirilgan manbalarning to‘g‘riligiga muallif(lar) mas’ul.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan materiallarni tahririyat anjuman dasturiga va to‘plamga kiritmaslik huquqiga ega.

Talablarga javob bermaydigan va muddatidan kechiktirib topshirilgan anjuman materiallari qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Anjumanni sermazmun va samarador o‘tkazishda, ilmiy-tadqiqot ishlarini keng jamoatchilikka tarqatishda ma’ruzalar (doklad) uchun reja buyicha quyidagi mavzular tanlab olingan:

1. Tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda metrologiyaning mohiyati va roli
2. O‘zbekiston: metrologiya kecha va bugun
3. O‘lchash natijalarini qayta ishlash: raqamlashtirishning ahamiyati
4. O‘lchash vositalarini loyihalash, ishlab chiqarish, ishlab chiqishda ishlatishning normativ-texnik jihatlari
5. O‘lchashlar va metrologik ta’minotning ilmiy-uslubiy asoslari
6. Raqamli metrologiya: rivojlanish istiqbollari va dinamikasi
7. Ishlab chiqarish va fan taraqqiyotida metrologiyaning zamonaviy muammolari

Yuqoridagi ma’ruzalar asosida anjumandan so‘ng ilmiy maqola tayyorlanib nufuzli bazalarda indeksatsiya qilinadigan jurnallarga hammualliflikda taqdim etiladi.

Anjumanda sho‘ba mavzulariga oid boshqa ma’ruzalar ham tinglanadi.

Manzil: Andijon shahri, Bobur shox ko‘chasi, 39 uy.

Anjuman o`tkazish uchun mas’ullar:

1. “Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti” kafedrasi mudiri – Sh.Sulaymonov, dotsentlar Z.B.Juraev, A.K.Sativaldiyev, Sh.M.Esanova, U.M.Muminov, katta o‘qituvchi M.O.Sattarov, assistent B.Tursunov.
2. O‘zbekiston Milliy Metrologiya instituti DM Andijon filiali bo‘lim boshlig`i U.Ismoilov, mutaxassis G.Shertoyloqova.

Aloqa uchun telefon raqami: +998902002530, +998977839550, +998979917040

Telegramm: +998977839550, +998979917040

E-mail: tursunovbotirjon51@gmail.com

To`lovni amalga oshirish uchun Andijon mashinasozlik instituti hisob raqami (Payme ilovasidan yoki bankdan o`tkaziladi):

shxv: 40011086003401709410035000 8 INN - 202 525 534